

SURIYA MUAMMOSINI DOIRASIDA AQSH-ROSSIYA MUNOSABATLARI

Musayeva Go'zal

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6850175>

Annotatsiya

XX asr boshlarida Amerika Qo'shma Shtatlarining (AQSh) ichki siyosatidagi internasionlaizm harakatlari mamlakatni barcha jahon voqealarida, birinchi navbatda, sovuq urush tugaganidan keyingi davrda halqaro munosabatlar tizimida ishtirok etishga undadi. Bunga tinchlikparvarlik va gumanitar missiyalar, shuningdek, "barqaror erkinlik" (Enduring freedom) operatsiyasi va Iroq ozodlik operatsiyasi, AQSh havo kuchlari bevosita ishtirok etgan barcha missiyalar kiradi. Rossiya va AQSh muzokoralari BMT xavfsizlik kengashining Suriyada tinchlik va siyosiy barqarorlikni o'rnatish va Jeneva muzokaralarining birinchi raundini o'tqazish to'g'risidagi 2254 rezolyutsiyasini ishlab chiqilishida va qabul qilinishida eng muhim orinlardan birini egalladi.

Ushbu ilmiy maqola Suriya tashqi siyosatining tarixiy holatini AQSh-Suriya munosabatlarini batafsil o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: AQSh, Suriya, tashqi siyosat, Rossiya, Eron, loq.

Suriyadagi Rossiya harbiy operatsiyasi boshlangandan keyin bir necha oy ichida Rossiya, AQSh va G'arb munosabatlarida iliqlik holati ko'rinadi, bunga sabab Rossiyaning Suriyadagi vaziyatga ta'siri kuchayishi va mazkur muammoni diplomatik aloqalarsiz yechish mumkin emasligi yaqqol namoyon bo'lganligida. Undan tashqari Suriyadagi Rossiyaning harbiy aralashuvi Vashintonni uyqudan turg'izdi va ko'pdan beri to'xtamayotgan Suriya va Iroq muammosini yechishga jalb etdi. Bu faqatgina AQShni ISHID ga qarshi kurashishga majburlabgina qolmay balki mazkur muammoni siyosiy yechimini qidirishga ham turtki bo'ldi. Rossiya va AQSh muzokoralari BMT xavfsizlik kengashining Suriyada tinchlik va siyosiy barqarorlikni o'rnatish va Jeneva muzokaralarining birinchi raundini o'tqazish to'g'risidagi 2254 rezolyutsiyasini ishlab chiqilishida va qabul qilinishida eng muhim orinlardan birini egalladi. 2016 yil fevral oxiridagi Tinchlik holati e'lon qilinishining asosiy sabablaridan biri ham mazkur AQSh va Rossiya prezidentlari o'rtasidagi suhbat hisoblanadi.

2016 yil 15 martdan boshlab asosiy Rossiya qo'shinlari Suriyadan olib chiqib ketildi. Shunga qaramasdan Rossiya ayrim yutuqlarga erisha oldi:

Birichidan, Rossiya aralashuvi Suriyadagi kuchlarni muozanatiga keltirib Bashar al- Asad tuzumining nafaqat saqlanib qolishiga, balki o'z qo'li ostidagi hududni kengaytirishiga ham erishdi.

Ikkinchidan, Suriyaning turli jihodchilik maqsad qilgan terroristik tashkilotlar, jumladan, ISHID va “Jabhat an-Nusra” qo‘liga o‘tib ketishi oldini oldi.

Uchinchidan, “Mo‘tadil oppozisiya” va Suriya hukumati o‘rtasida Jeneva shahrida o‘t ochishni to‘xtatish bo‘yicha kelishuvga erishildi (2015 yil 27 fevraldan).

Boshqa tomondan esa ko‘p millatli va chigal holatdagi fuqarolar urushiga HKK ning aralashuvi boshqa natijalar bermas edi ham. Undan tashqari 2016 yil boshiga kelib Suriyada aniqlangan boshqa bombardimon qilinadigan yer nishonlari ham deyarli qolmagan edi. Birgina Suriya quruqlik qo‘shinlari bilan birga amalga oshirilgan Rossiya havo hujimi harbiy harakatlarni negizidan o‘zgartira olmas edi. Bu hammasi yana bir bor muammoni faqat siyosiy yechimi bo‘lishini talab etmoqda. Ya’ni muammo qurolli kuchlar yordami bilan emas, siyosiy yechim bilan hal etishi kerak.

Saudiya Arabistoni va Eron o‘rtasidagi kelishmovchiliklar

Vaziyatning mintaqaviy doiradagi rivoji birin ketin bir nechta muammolarni o‘rtaga tashlar edi. Bunday muammolardan biri bu Siriyadagi va mintaqadagi asosiy o‘yinchilardan biri Eron va Saudiya Arabiston o‘rtasidagi munosabatlarning keskilashuvi edi. Bu o‘z navbatida Eron yadro dasturi va Saudiya Arabistonidagi hokimiyat o‘zgarishi munosabati bilan 2015 yilda ochilgan iliq munosabatlar eshigini qayta yopib qo‘ydi. Yangi Eron- Saudiya Arabiston qarshiliklar o‘z navbatida mintaqadagi shiya- sunniylar o‘rtasida qarshiliklarni kuchliroq bo‘lishiga olib keldi, kelishuvlar doirasida mazkur muammo eng chigallaridan biri hisoblanadi hatto rus- g‘arb yoki rus- turk inqirozidan ham ustunroq turadi. Shunga qaramay yangi Eron Saudiya Arabiston muammolari Rossiya oldida yangi diplomatik imkoniyatlarni ochib berdi, chunki Saudiya Arabistoniga ham, Qatarga ham Suriya muammosini Eronga qaraganda Rossiya bilan muhokama qilishi osonroq .

Rus- turk munosabatlarining chigallashuv omili

2015 yil oxirida keng ko‘lamli rus-turk inqirozi boshlandi. Moskvaning to‘g‘ridan to‘g‘ri Siriya muammosiga aralashuvi so‘zsiz Turkiya prezidanti Rajab Tayib Erdoganning “suriya o‘yini”ni buzib yubordi. Bu o‘z navbatida nafaqat islom dini tomonidan balki Turkiya hokim partiyasining hokimiyat uchun ichki siyosiy kurashlar va Anqara mintaqaviy siyosiy qarashlari tomonidan ham to‘g‘ri kelmas edi. Rossiya nafaqat Suriya siyosiy tuzumini saqlab qoldi balki ularning nazorati ostidagi hududni kattalashuviga ham yordam berdi va bu bilan Turkiyaning o‘yinini buzdi. Suriyaning shimolidagi kurd guruhlarini bilan harakat qilib bu yerdan Turkiya tomonidan qo‘llab quvvatlanayotgan jihodchi va boshqa jangari guruhlarini surib chiqardi. Undan tashqari RF HKK operatsiyasi nafaqat

Turkiyaga noqonuniy neftning tranzit yo'lini yopishga balki rus samolyoti "su 24" ning urib tushirilganidan keyin esa Suriya hududi osmonini butunlay Turkiya uchun berkitishga imkon yaratdi. Suriyaning kelajakdagi siyosiy tuzumi qanday bo'lishidan qat'iy nazar bu Anqaraga to'g'ri kelmamasligi amri mahol. Shunga qaramay Erdogan o'z navbatida Rossiyaning Suriyadagi harbiy harakatlarini ichki yirik islomchi va millatchi guruhlarini birlashtirishda ishlatdi .

Rossiya Turkiya munosabatlaridagi eng muhim muammolardan biri bu Suriya kurdlarining o'rni hisoblanadi. Turkiya bu guruhlarini terrorchi deb hisoblaydi va ularni tinchlik holatidan chiqarishni talab qiladi, hatto Suriya shimolidagi kurd pozitsiyalarini to'g'ridan to'g'ri bombardimon qilishni boshladi. Rossiya AQSh bilan birgalikda bu kurd guruhlarini IShID ga qarshi kurashida va siyosiy tartib o'rnatishda teng huquqli qatanashishuvini qo'llab quvvatlaydi. Biroq Rossiyaning Suriya kurdlarini qo'llab quvatlovi sust bo'lib, faqatgina Moskvada rasmiy NPO ni ochishga ruxsat berilgan va ularga yengil qurol yarog' yetqazib berish bilan chegaralandi.

Anqaraning Suriya muammosi bo'yicha tutayotgan yo'li qandaydir ma'noda Suriyada tinchlik o'rnatish bo'yicha AQSh va Rossiya munosabatlarini jadallashuviga olib keldi. Suriya – Turkiya chegarasidagi inqirozning chigalligi holatni muvozanatdan chiqishiga va Turkiyaning butunlay harbiy aralashuviga olib kelishi mumkin edi. Bu AQShga o'zining barcha diplomatik imkoniyatlarini safarbar etishga va NATOni Suriya muammosi bo'yicha Rossiya qarshi chiqmaslikka, undan tashqari Anqaraning qarshiligiga qaramasdan Vashington qo'llab quvvatlayotgan turk kurdlari muammosini chetlab o'tish usulini qidirishga va Suriya hukumat qo'shinlarining keyingi ayniqsa Aleppo sharidagi yurishlarini to'xtatishga undadi. Agar AQSh va NATO Suriyadagi turk siyosatini ma'lum bir chegarada ushlab turishga tayyor bol'sa, unda Rossiya Damashqqa maksimal bosim o'tqazdi va uni tinchlik holatiga majbur qildi, undan tashqari jihodchi guruhlarini aniqlashtirishda yumshoqlik bilan ish tutdi. Bu birlik o'z navbatida AQSh va Rossiya o'rtasidagi kelishivga, Suriyani xalqaro qo'llab quvvatlash guruhi roziligi va BMT xavfsizlik kengashi tomonidan tasdiqlangan 2268 rezolyutsiyasiga muvofiq tinchlik o'rnatish bitimiga erishishda muhim o'rin tutdi.

Suriya muammosini hal qilish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar:

- Suriyani faqat muzokaralar orqali hal etish asosiy masalaga aylandi. Boisi nizo tomonlarining manfaatlari mavjudligi, ular o'rtasidagi kelishuvni ilgari surdi. 2015 yil 18 dekabrda BMT Xavfsizlik Kengashi doirasida Suriyaning tinch yo'lla bilan hal etish masalasi ko'rildi, biroq natijaga erishilmadi.

- 2016 yil Suriya hukumati va muxolifati o'rtasidagi muzokaralar 29 yanvar kuni Jenevada bo'lib o'tdi. Ular BMT Xavfsizlik kengashining 2254 raqamli rezolyusiyasi bo'yicha o'tkazildi. Suriya bo'yicha muzokaralarning birinchi raundi doirasida AQSh va Rossiyaning Suriya muammosi orqali diplomatik munosabatlari qayta tiklanishi va jadallashuvi 2016 yil 27 fevralida bu davlatlarning bevosita yordami bilan qisman tinchlik holati e'lon qilinishiga olib keldi (IShID va Al- Qoida guruhining "Jabhat an-Nusra" bu holatga kiritilmaydi).

- 2016 yil 24 mart kuni Jenevada Suriya bo'yicha muzokaralarning ikkinchi raundi tugadi. Unda tomonlar hech qanday kelishuvlarga erisha olishmadi.

- Muzokaralarning uchinchi raundi 2016 yil 13-14 aprelda o'tkazilishi rejalashtirilgan .

Xulosa qilib aytganda, 2016 yil fevralidagi Tinchlik bitimi Rossiya va AQSh harbiy koalitsiyasining harbiy harakatlarni to'xtatdi degani emas. Tinchlik bitimidan so'ng ham AQSh va Rossiya harbiy kuchlari o'rtasida IShID va "Jabxat an- Nusr" pozitsiyalari bo'yicha zarbalar davom ettirilishi haqida kelishib olindi. Shu bilan birga shimoldagi "Axror ash- shom" va janubdagi "Jeysh al- islom" qurollangan islomchi guruhlar bu zarbalardan chekkada qoldirildi bu Rossiya tomonidan berilgan ma'lum bir yon bosish sifatida qaraladi. Asosiysi shundaki IShID va "Jabhat an - Nusr" pozitsiyalarining "Axror ash- shom", "Jeysh al- islom" va boshqa mayda jihodchi bo'lmagan guruhlarga yaqin joylashuvi tinchlik holatini ancha sustlashtiradi. Bunday sharoitda IShID va "Jabxat an- Nusr" ga qaratilgan zarbalar natijasida "Axror ash- shom", "Jeysh al- islom" va boshqa mayda jihodchi bo'lmagan guruhlarga tegishi ham muqarrar undan da muhumrog'i shundaki, ular ham javoban muntazam zarbalar qaytarishi mumkin. Asosan tashqaridan moddiy yordam olayotgan islomchi guruhlar yoki ularning eng radiqal oqimlari tinchlik holatini bajarishadi deganini anglatmaydi.

Biroq tinchlik holatidan kutilyitgan natijalar o'zini oqlaydi va bu oxirgisi deb o'ylash hatto va kelgusida bo'lishi mumkin bo'lgan bunday tinchlik holatlarga tayyor turishimiz kerak. Bu holatning mohiyati shundaki, davlatning har hil hududlarida tinchlik holatlarini ko'paytirish, kuchaytirish va rivojlantirishga; gumanitar yordamni chekka hudularga yetqazish yo'llarini ochishga; oxirgi oylarda Suriya qo'shinlari qo'lga kiritgan yutuqlarni mustahkamlashga va jihodchi guruhlarga xalqaro harbiy bosimni kuchaytirishga qaratilgan. Bu harakatlarning barchasi Suriyada tinchlik holatini o'rnatish bo'yicha bitimlarning davom etishiga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафоев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. –Т.: ЖИДУ, 2005. –328 б.

2. Гофуров С.М. Хавфсизлик стратегияси: Марказий Осиё республикалари ва Форс кўрфази араб давлатлари амалиёти: Монография. –Т, 2007. -336 б
3. Дугин А. Основы геополитики. –М.: Арктогея, 1997. –484 с.
4. Brian Davies. An introduction to the Philosophy of Religion. –3d edit.–N.Y.: Oxford University Press, 2004. –234 p.
5. Behravesh M. Saudi Arabia's anti-Iran stance looks desperate. // D+C - Development + Cooperation. 03/02/2016. // Center for Middle Eastern Studies (CMES). Sweden, 2016.
6. Ирхин А.А. Сирийский конфликт в региональной и мировой политике // Вісник СевНТУ: зб. наук. пр. Вип. 145/2014. –С.224–228.
7. Об изменениях в военно–политической обстановке на Ближнем Востоке и в Северной Африке (21 — 27 марта 2016 года) // 28 марта, 2016 // www.iimes.ru
8. Blanchard C.M. Armed Conflict in Syria: Overview and U.S. Response // Congressional Research Service. RL33487. October 9, 2015. –P1–31.
9. Trofimov Y. New Saudi King Brings Major Change at Home and Abroad // Wall Street Journal, April 29, 2015.